

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6/S-son (4-jild)

**2024**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 5/6 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

<i>Умарханова Дилдора Шарипхановна</i> ЕВРОПА МИНТАҚАСИДА ЖИНОЯТ ИШЛАРИ БЎЙИЧА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ .....	9-14
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLAR O'RTASIDAGI FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABARTLAR.....	15-26
<i>Собирова Нозимахон</i> СИТУАЦИОННОЕ ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ НЕДОБРОСОВЕСТНОСТИ: РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ, МОТИВАЦИИ И ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ К ОЦЕНКЕ .....	27-36
<i>Йўлдошев Азизжон Эргаш ўғли</i> ЖАМИЯТ ВА ДАВЛАТ ИШЛАРИНИ БОШҚАРИШДА ИШТИРОК ЭТИШ ҲУҚУҚИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ .....	37-45
<i>Турсунов Ойбек</i> ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ВОДНОГО ПРАВА .....	46-53
<i>Ismoilova Aziza Alisher qizi</i> MEHNAT MUNOSABATLARIDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHDA GENDER HUQUQIY EKSPERTIZA AHAMIYATI VA HUQUQIY MUAMMOLARI .....	54-60
<i>Safarova Shaxlo Pulatovna</i> YANGI O'ZBEKISTONNING HOZIRGI RIVOJLANISH DAVRIO'ZGARISHLARINING INSON HUQUQLARI TA'LIMINI AMALGA OSHIRISH VA RIVOJIGA TA'SIRI .....	61-67
<i>Akbaralieva Mukhayo Karamatullo kizi</i> CRIMINAL LIABILITY FOR KIDNAPPING IN FOREIGN COUNTRIES .....	68-71
<i>Valijonov Daler Dilshodovich</i> PROBLEMS OF COMBATING CORRUPTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND PRACTICE OF EU MEMBERS .....	72-76
<i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li</i> DAVLAT FUNKSIYALARI VA DAVLAT MOLIIYASI O'ZARO NISBATINING HUQUQIY MASALALARI .....	77-92
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> VAKILLIK INSTITUTINING FUQAROLIK-HUQUQIY TAHLILI .....	93-103
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> НАСЛЕДОВАНИЕ ПРАВ НА ОБЪЕКТЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ ...	104-109
<i>Рахмонова Мохичехра Нодирбек кизи</i> СУВЕРЕНИТЕТ И ЮРИСДИКЦИЯ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ .....	110-118
<i>Худайбердиева Шоҳиста Акмал қизи</i> ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ РЕСПУБЛИКАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК ВА	

ҲАМКОРЛИКНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДАГИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР .....	119-129
---	---------

*Alijonov Ayubjon Qobiljon o'g'li*

RAQAMLI IQTISODIY HAMKORLIKNI XALQARO TARTIBGA SOLISH .....	130-136
---	---------

*Fayzulloev Shohijaxon Jobirovich*

XALQARO SAVDODA NIZOLARNI HAL QILISH KONSEPSIYASINING RIVOJLANISHI: TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	137-141
--	---------

*Fayzullaeva Shakhlo Jumaniyaz kizi*

ISSUES OF ONLINE DISPUTE RESOLUTION UNDER THE WTO .....	142-147
---	---------

*Raimov Elbek Bahodirovich*

OLIY TA'LIM TASHKILOTINING YURIDIK SHAXS SIFATIDAGI HUQUQIY MAQOMI.....	148-152
---	---------

*Alieva Kamola Ravshanovna*

OVERCOMING LEGAL BARRIERS TO ENHANCE WOMEN'S POLITICAL PARTICIPATION IN UZBEKISTAN .....	153-161
--	---------

*Juraeva Asal*

MECHANISM OF ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN .....	162-166
---	---------

*Rakhmonov Otabek*

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE REORGANIZATION OF JOINT STOCK COMPANIES .....	167-171
--	---------

*Айбек Якубов*

ПРАВОВОЙ ПОРЯДОК РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И МЕЖДУНАРОДНО-ЧАСТНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В РАМКАХ ВСТУПЛЕНИЯ ВО ВСЕМИРНУЮ ТОРГОВУЮ ОРГАНИЗАЦИЮ .....	172-178
--	---------

*Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li*

MA'MURIY SUD Hujjatlarini ijroga qaratishning huquqiy tartibi .....	179-184
---	---------

## **07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Elmuratov Ortiq Oltiboy o'g'li*

TURONNING YUNON-MAKEDONLARGA QARAMLIK DAVRI ME'MORCHILIK AN'ANALARI.....	185-192
--	---------

*Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li*

URBANIZATSIYA TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING TAHLILI .....	193-199
---	---------

## **08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Imamov Javokhir*

LEVERAGING INTERNATIONAL BEST PRACTICES FOR ESTABLISHING MODERN TECHNOLOGICAL INDUSTRIAL ZONES IN UZBEKISTAN .....	200-203
--	---------

## **09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Shodmonova Shaxnoza Dadaxujayevna*

"TAHDID" FENOMENI VA UNING SIYOSIY JIHATLARI .....	204-209
--	---------

## **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Bawetdinov Mukhammeddin*

UZAQBAY PIRJANOVNING PEYZAJ LIRIKASI ..... 210-215

*Соҳибова Зарнигор*

ПЕЙЗАЖ ЛИРИКАСИДА ДАРАХТ ОБРАЗИ (ЗУЛФИЯ ИЖОДИ МИСОЛИДА) ..... 216-219

*Jonridova Sanobar Sherali qizi*

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IMPLIKATSION BIRLIKLAR TADQIQI ..... 220-224

*Sharipova Mokhidil*

PHONETIC CHARACTERISTICS OF ONOMATOPOEIC WORDS IN ENGLISH

LANGUAGE..... 225-231

### **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Umarov Abdurasul Abdurahimovich*

PROFESSIONAL VA TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KOMPAS-3D  
AVTOMATLASHGAN LOYIHALASH TIZIMINI QO'LLASH ..... 232-237

*Ro'ziyeva Nafosat Abdumumin qizi*

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA ABDULLA AVLONIYNING AXLOQIY  
QARASHLARI ..... 238-245

*Qalandarova Maxliyo*

MOLIYAVIY SAVODXONLIKKA O'RGATISHDA O'QUVCHILARINING O'QUVBILISH  
FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH ..... 246-251

*Чинқулова Гулмеҳра Баҳроновна*

ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШДА ЗАМОНАВИЙ  
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ..... 252-258

*Ibragimova Venera Azadovna*

TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT MODUL TIZIMI IMKONIYATLARI..... 259-264

*Turgunov Shuxratjon Nozimjon o'g'li*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HAQORATNING FONETIK VA MORFOLOGIK SATHLARIDA  
IFODALANISHI ..... 265-269



**Received:** 10 August 2024  
**Accepted:** 15 August 2024  
**Published:** 25 August 2024

*Article / Original Paper*

## **STUDY OF IMPLICATIVE UNITS IN UZBEK LINGUISTICS**

**Jonridova Sanobar Sherali qizi**  
QSPI, PhD student

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada antroposentrik paradigmaning asosiy xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, uning muhim sohalaridan biri bo'lgan pragmalingvistikaning tadqiqot birliklarini o'rganish bilan bog'liq o'zbek tilshunosligidagi qarashlar muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** pragmatika, semantika, implisitlik, presuppozitsiya, tagma'no, propozitsiya.

## **O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IMPLIKATSION BIRLIKLAR TADQIQI**

**Jonridova Sanobar Sherali qizi**  
QDPI 1-kurs tayanch doktoranti

**Abstract.** This article highlights the main features of the anthropocentric paradigm. Also, views in Uzbek linguistics related to the study of research units of pragmalinguistics, which is one of its important fields, were discussed.

**Key words:** pragmatics, semantics, implicitness, presupposition, implication, proposition.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI6Y2024N28>

**Kirish.** Ilmiy tafakkur taraqqiyoti har qanday fan sohasidagi nazariy qarashlar o'zgarishiga, tadqiqotning yangi metodlari yaratilishiga va ushbu metodlar tatbiqida yangi nazariy g'oyalarga tayanish asosida tamoman o'zga amaliy natijalarga erishilishiga sabab bo'ladi [1; 34.]. Ilmiy paradigmaning o'zgarishi natijasida bir qator boshqa fanlarda bo'lgani kabi tilshunoslikda ham yuqori darajadagi umumlashtirishdan hayotning o'zi taqdim etadigan materialga burilish kuzatildi. Inson hayoti davomida barcha ruhiy, ijtimoiy, etnikmadaniy xususiyatlari bilan maksimal darajada hisobga oladigan ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyoj fanlar o'rtasidagi intensiv o'zaro ta'sirga olib keldi. Tilshunoslik gumanitar fanlar rivojlanishining zamonaviy tendensiyalariga javob berib, o'zining ta'sir doirasini sezilarli darajada kengaytirdi, turli xil ilmiy yo'nalishlar birlashtirildi, fanlar chorrahasida yangi fanlar paydo bo'la boshladi. Tilshunoslikda til tiziminig har bir darajasida obyektga chuqurroq kirib borish yangi tadqiqot predmetlarini keltirib chiqardi. Antroposentrik paradigmaning shakllanishi lingvistik masalalarning inson va uning madaniyatdagi o'rni tomon siljishiga olib keldi. Lingvistik tadqiqotlar doirasi nutq faoliyati va nutqiy o'zaro ta'sirning barcha tomonlarini o'z ichiga qamrab oldi. "Minimal" til birliklariga bo'lgan qiziqish uning pragmatik omillar bilan o'zaro ta'sirida ko'rib chiqiladigan "maksimal" matnga (diskursga) qiziqish bilan almashtirildi [2; 3.]. Antroposentrik paradigma til tadqiqotining yangi asosiy tushuncha va usullari, uning birliklari,

qoidalarini tahlil qilishda yangi yondashuvlarni nazarda tutadi. Pragmatika ham antroposentrik nazariya asosida yuzaga kelgan yangi sohalardan biridir. Pragmatika tilshunoslik uchun umumiy faoliyat nazariyasining asosiy tamoyillari va muloqot nazariyasi asoslarini qayta kashf etdi. Pragmalingvistik tadqiqotning asosi sifatida faoliyat tamoyilining qabul qilinishi nutqiy muloqot tizimining lisoniy pragmatik mundarijasi tahlilini asosiy o'ringa chiqardi.[ 1; 74]. Pragmatik burilish asosiy e'tiborni Emil Benveniste (1902-1976) ta'kidlaganidek, shaxsning tilni "o'zlashtirishi" qanday qilib aniq kommunikativ harakatlarda sodir bo'lishiga qaratadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jahon tilshunosligida bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham til birliklarining pragmatik xususiyatlarini o'rganishga qiziqish kuchaydi. Tilshunoslik taraqqiyotiga o'zining yangicha qarash va nazariyalari bilan salmoqli hissa qo'shgan o'zbek tilshunoslari ham bu yangi yo'nalish bo'yicha o'zining qat'iy bir so'zini ayta oldi. Ayniqsa, gap tadqiqi yuzasidan olib borilgan ishlarda pragmatikaning o'rganish obyekti hisoblangan presuppozitsiya hodisasiga alohida e'tibor qaratildi. Dastlab ushbu birlikning jahon tilshunosligidagi tadqiqi semantik sintaksis doirasiga to'g'ri keladi. To'g'ridan to'g'ri ma'nolarni tekshiradigan semantikadan farqli o'laroq, pragmatika ma'noning uzatilishi nafaqat so'zlovchi va tinglovchining tarkibiy va lingvistik bilimlariga, balki nutq kontekstiga ham bog'liqligini o'rganadi.

O'zbek tilshunosligida pragmatika sohasidagi izlanishlarni N.Mahmudov, A.Nurmonov, D.Lutfullayeva, M.Hakimov, Sh.Safarov, U.Rahimov, M.Gaziyeva, M.Madaminova tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin. Tilshunos olim N.Mahmudov presuppozitsiya va gapning o'zaro munosabati, A.Nurmonov ko'makchili qurilmalarning presuppozitsiya hosil qilishdagi o'rni xususida, M.Hakimov o'zbek tilshunosligida shakllanayotgan pragmalingvistika asoslari, nutqiy akt nazariyasi kabi tushunchalarning keng qamrovli bo'lishiga munosib hissa qo'shdi [3; 34.]. D.Lutfullayeva esa ko'makchili qurilmalarning presuppozitsiya hodisasiga ishorasi to'g'risida ilmiy izlanishlar olib bordi. U.Rahimov 1994-yilda yuklamalar presuppozitsiyasiga oid o'zining ilmiy tadqiqotlarini e'lon qildi. Z.Burxonov o'zbek tilida ko'makchi va ularga vazifadosh kelishiklarning pragmatik xususiyatlariga oid nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Keyinchalik esa o'zbek tilshunosligida til birliklarining pragmatik xususiyatlari haqida qator tadqiqotlar yuzaga keldi. A.Pardayev yordamchi so'z turkumi hisoblangan bog'lovchilarning pragmatik tadqiqiga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasini, M.Qurbonova bolalar nutqining o'ziga xos jihatlari hamda uning pragmalingvistik xususiyatlariga oid, M.Gaziyeva badiiy matnning implikativ-pragmatik strukturasi xususidagi ilmiy ishlarini himoya qildi. Pragmalingvistika va uning tarkibiy qismlari hozirgi kunda ham yangi izlanuvchilar uchun qiziqarli mavzulardan biri bo'lib kelmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Pragmalingvistikadagi eng asosiy tushunchalardan biri presuppozitsiyadir. Presuppozitsiya hodisasi gap semantik tuzilishining yashirin komponenti bo'lib, tushunish uchun zaruriy shart sifatida xizmat qiladi hamda diskursiv tahlilda alohida ahamiyat kasb etadi. Presuppozitsiyada kommunikantlarning tushunish qobiliyati va farosati, bilish fondi, bilim zahirasi asosiy rol o'ynaydi. Presuppozitsiya ostida „qizim senga aytaman, kelinim sen eshit“ qabilidagi ma'no-mazmun yotadi. O'zbek tilshunosligida ilk bor N.Mahmudov o'zining tadqiqotlarida ushbu tushuncha haqida ma'lumot berdi, uning falsafa, mantiq fanlaridan tilshunoslikka yangi bir atama sifatida kirib kelish bosqichlarini sharhlab o'tdi. A.Nurmonov esa gapning semantik tarkibidagi roli haqida qimmatli ma'lumotlar bilan to'ldirdi.

Presuppozitsiya hodisasini tilshunoslikdagi ahamiyati yuksak ekanligini yorqin misollar bilan tadqiq etdi. Tilshunos olim A.Nurmonov ushbu pragmatik terminni logik va semantik tushuncha ekanligi ta'kidlaydi. Sh.Safarov presuppozitsiya hodisasini semantik va pragmatik turlarga ajratib, farqlash kerakligini ta'kidlaydi. Presuppozitsiya kommunikantlar o'rtasida o'zaro shartnoma sifatida yuzaga keladi va ularning ichki maqsadini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Ushbu fikrning tasdig'i sifatida tilshunos Z.Burhonov fikrlarini keltiramiz: "Presuppozitsiya til birligining nutqiy vaziyat hamda nutq egalarining til ko'nikmalari bilan bog'liq tarzda yuzaga chiquvchi pragmatik xususiyati bo'lib, mohiyatan gap qurilishi asosida yotuvchi yashirin hukmning tashqi ishoraga asoslanuvchi ko'rinishidir" [4; 5].

**Tahlil va natijalar.** Presuppozitsiyada barcha uchun tushunarli bo'lgan propositsiya haqida gap ketadi. Jumladan, "...nutqiy kommunikatsiyaning to'g'ri va real amalga oshishi uchun kommunikantlar nutq momentiga qadar muayyan faktlar bilan tanish bo'lishi, umumiy vaziyat bilan bog'liq muayyan bilim – xabardorlikka ega bo'lishlari lozim. Ana shu faktlar, bilimlar tilshunoslikda presuppozitsiya nomi bilan umumlashtiriladi." [5; 28].

N.Mahmudov quyidagicha izohlaydi: „Har qanday tekst presuppozitsiyaga ko'ra, formal jihatdan ixchamlashib, qisqarib boradi. Til taraqqiyotining yetakchi tendensiyasi bo'lgan til vositalarining ekonomiyasi tendensiyasi presuppozitsiyalarni formal tasvirlash lozim bo'lsa, unda tekst hajman kattalashadi. Nutq temasi bilan tinglovchi (o'quvchi) tanish bo'lmagan holatlarda zaruriy ravishda shunday qilinadi ham, ya'ni ayni nutq bilan bog'liq presuppozitsiyalar birin – ketin eksplitsit tasvirlanadi" [3; 5]. Ya'ni presuppozitsiya yig'iq hamda yoyiq shaklda ma'lumotni ifodalab kelishi mumkin. Masalan, –Sudda aytolmagan haqiqatni bizga ayting? – deb so'radik undan. Qo'rqaman! –dedi lablari qaltirab. –Kimdan? Rekunkov A. O'q uzgan kim? (O'zbekiston adabiyoti va san'ati 1987. 30-son, 8-bet.) Yuqoridagi fikrlarning isboti sifatida quyidagi gapni tahlil qilaylik. Ushbu jumla men qotil kim ekanlini aytolmayman, uni aytishdan qo'rqaman tarzida ifodalanishi mumkin edi. Lekin tejamlilik tamoyiliga asoslangan holda qo'rqaman so'zidan foydalanilgan hamda presuppozitsiyaga asos bo'lgan. Tilshunos U.Rahimov esa ilmiy tadqiqotlarida zohiriy ma'no ostida yana qo'shimcha botiniy ma'no ifodalovchi hodisa sifatida baholaydi. Presuppozitsiya hodisasining o'rganilishi sintaktik semantikaning mazmuniy murakkablashuvi bilan bog'liq masalalarni hal qilishda, shuningdek, diskurs nazariyasi, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi kommunikatsiyaning ta'sir jarayonini yanada oshirishga ham yordam beradi.

M.Hakimov presuppozitsiya hodisasini tagma'no bilan farqlashga e'tiborni qaratadi. Presuppozitsiya va tagma'no o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni yoritib bergan. "...ta'kidlash lozimki, lingvistikaga oid nazariy adabiyotlarda matn semantik tuzilishini murakkablashtiruvchi presuppozitsiya hodisasi xususida juda ko'plab nazariy hamda amaliy ma'lumotlar berilgan holda, yashirin grammatik kategoriya va yashirin ifoda tarkibiga kiruvchi propositsion subyekt elementlari to'g'risida hech qanday fikr aytilmaydi. Matn orqali bayon qilingan propositsion subyekt ta'sirida yashirin ifoda strukturasi ichida tagma'no ko'rinishi ham mavjud bo'ladi. Matndagi tagma'no propositsiya va nomatniyma'no yordamida aniqlanadi. Presuppozitsiya ko'rinishi ham matndagi propositsion strukturaning tahlil qilish jarayonida aniqlanadi..."[6; 92.]. M.Hakimov presuppozitsiya hodisasini aniqlashtirishda, bayon qilingan fikrga nisbatan zid mazmunni olish kerakligini alohida ta'kidlab o'tadi. Olimning fikricha, "presuppozitsiyaning asosiy belgisi orqali bayon qilingan propositsiyaga–hukmga ziddi qo'llash orqali mazmuniy munosabatning anglanishidir."[6; 125.]. Ammo ushbu qoidaga zid

tarzda mana bu misolni ko'rib o'taylik. "Yana yoningizda qarz dorman" jumlasidan oldin ham u kishidan yordam olgani, qarz dor bo'lgani, ushbu holat oldin ham takrorlangani yoki u kishining saxiy ekanligi to'g'risidagi yashirin mazmun anglashiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, har doim ham ochiq ifodalangan propositsiyaga semantik jihatdan zid bo'lavermas ekan. N.Mahmudov esa quyidagicha ta'rif beradi: "presuppozitsiya ayrim holatlarni hisobga olmaganda, nisbiy universal kategoriyadir, ya'ni u to'liq universal kategoriya sifatida qaralishi mumkin emas... Ammo tashqi olam haqidagi umumiy bilimlarning deyarli hamma xalqlar yaqinligidan kelib chiqilsa, presuppozitsiya universal kategoriya sifatida baholanishi mumkin, lekin bu bilimlar ichida qaraluvchi madaniyatlar, tarixiy sharoitlar, urf-odatlar, turmush sharoitlari, milliy mentalitet qarashlar kabilarning har xilligi presuppozitsiyaning nisbiy universal kategoriya ekanligini bildiradi"[3; 28]. Agar M.Hakimov asoslab bergan tagma'no va presuppozitsiya hodisalarining o'xshash va farqli jihatlarni to'g'ri anglagan bo'lsak, quyidagi gapda ularni ko'rishimiz mumkin. "Tagma'no semantik ifodalanishiga ko'ra presuppozitsiyadan farqlanadi. Tagma'no ham xuddi presuppozitsiyadagi kabi so'zlovchining ichki maqsadi bilan bog'liq holda biror fakt xususidagi axborotga ishora qilish vazifasini bajaradi. Tagma'noning presuppozitsiyadan asosiy farqi, u har qanday holatda propositsiyaga qarama-qarshi qo'yish bilan hosil qilinmaydi." [6; 85]. Presuppozitsiya bir qator olimlar tomonidan atroflicha tadqiq qilingan va ishlar davom etmoqda. Presuppozitsiya hodisasi A.Qo'ychiboyev tomonidan ikki turga bo'lib o'rganiladi. Birinchi turdagi presuppozitsiya "aniqlik" presuppozitsiyasi deb ataladi va u til birliklarining lisoniy-semantik kategoriyalarining mosligiga asoslanadi. Ikkinchi tur presuppozitsiya esa, "milliy-madaniy" presuppozitsiya bo'lib, til belgilarining ekstralingvistik kategoriyalariga tayanadi. [7; 86].

Sh.Safarov o'zining "Pragmalingvistika" asarida imlikatura birliklarining o'zaro farqlarini ko'rsatib beradi. Presuppozitsiya hamda implisit ifoda haqida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Matnning va umuman turli ko'rinishdagi nutqiy tuzilmalarning mazmunini belgilovchi hodisalardan yana biri *presuppozitsiyadir*. Presuppozitsiya maxsus adabiyotlarda inferensiyaning xususiy ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi va bunda ifodalanyotgan fikr – hukmning haqiqiy yoki o'rinli ekanligi e'tiborga olinadi. Buning uchun esa muloqot ishtirokchilari voqelik, kechayotgan yoki xabar qilinayotgan hodisa haqida biror bir umumiy ma'lumotga ega bo'lishlari kerak." R.Stolneyker ta'biricha, "presuppozitsiya talab qilinayotgan lisoniy faoliyat ijrosidan oldin implisit nazarda tutilgan propositsiyadir". [1; 318]. Presuppozitsiya, implikatura ham yashirin ma'no ifodalasa-da, professor ularning ifodalanishiga ko'ra alohida hodisa ekanligini ta'kidlab o'tadi. "Implikatura doimiy bo'lmagan, matnda tez o'zgarib turadigan, hatto yo'qolishi mumkin bo'lgan ma'no, presuppozitsiya esa matnda yo'qolmaydigan, doimiylik xususiyatiga ega bo'lgan mazmuniy hodisadir" [1; 138]. U.Rahimov bo'lsa, bu ikki birliklar haqida I.Ballertning fikrlarini berish bilan izohlaydi. "Presuppozitsiya implikasiyaning xususiy munosabatidan kelib chiqadigan va tekst ichidagi gaplarning bog'lanishini hosil qiluvchi zarur hodisa hisoblanadi. Chunki har qanday gapda birdan ortiq implikasiya mavjud bo'lishi mumkin. Bu implikasiyalar xususiy va nutqiy hisoblanadi. Xuddi shu implikasiyalar asosida tekst ichidagi gaplar o'zaro bog'lanib, ma'lum mazmunga ega bo'ladi." [8; 4.] Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, ushbu hodisaga quyidagicha ta'riflarni berib o'tamiz:

1. Presuppozitsiyada kommunikantlar mavjud vaziyatni oldindan bilishadi. Masalan, ...chang bosgan qalin pardalar baland derazalarning toshoynalarini yarmisigacha to'sgan.(

O'zbekiston adabiyoti va san'ati.) Ushbu gapdan „*pardalar kir ekanligi, anchadan beri tozalikka rioya qilinmayotganligi*“to'g'risidagi presuppozitsiyasi anglashiladi. Bu vaziyatda axborot nutq ishtirokchilariga oldindan ma'lum.

2. Presuppozitsiyaning xususiyatlaridan biri hisoblangan tejamlilik tamoyili asosida vujudga keladi. Darsda sendan ko'ra yaxshi qatnashdim. Ushbu gap men bugun darsda yaxshi qatnashdim, sen esa yaxshi qatnashmading tarzida ifodalanishi mumkin edi. Ammo tejamkorlik asosida presuppozitsiyaga ishora qilingan.

3. Presuppozitsiya gapning sintaktik tuzilishida maxsus vositalar ishtirokisiz vujudga kelishi mumkin. Bunda yashirin ifoda ichki struktura orqali namoyon bo'ladi. – Xalima Nosirovani taniysizmi, buvi? – Taniyman, tanimay o'libmanmi, Xalima ashula aytsa butun toltor ko'chib borar edik-da, bolam. (Y. Yakvalxo'jayev Omon bo'l qo'shiq. O'zbekiston adabiyoti va san'ati 1987, 30-son, 4-bet.) Ushbu jumalardan Xalima Nosirovani ovozi shirali ekanligi, qo'shiqni yaxshi kuylashi to'g'risidagi presuppozitsiya kelib chiqadi.

4. Presuppozitsiya M.Hakimov fikrlari bilan aytganda, mavjud axborotning ziddini keltirish bilan hosil qilinadi. Usti-boshini qoqqancha yugurib ketdi. Ya'ni bu yerda uning kiyimlari kir ekanligi hamda uni (qoqmoq tozalamoq bilan teng) tozalaganligi haqidagi axborot mavjud.

5. Gap tarkibida tashqi signallari orqali ifodalanishi mumkin. Masalan, Faqatgina qanotlarini-yu, to'vusday yonib turadigan dumlarini yulish bir oz qiyin bo'ldi, xolos. (O'zbekiston adabiyoti va san'ati 37-son.) Ushbu gapda tovuqning qolgan joyini osonlik bilan tozalaganlik to'g'risidagi presuppozitsiya ifodalangan bo'lib faqat yuklamasi orqali presuppozitsiya hosil qilinyapti.

**Xulosa.** Implikatsiya, implikatura birliklari pragmatika sohasidagi eng qiziqarli mavzulardan biridir. Bunday yashirin ma'nolarning barcha uslublarda qo'llanilishi mavjud axborotga pragmatik jihadan baho berish, tinglovchiga ta'sir ko'rsatish, ijodkorning mahoratini belgilashda muhim vosita hisoblanadi. Bu borada ko'plab tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, implitsit axborotning mohiyati, yuzaga kelishi, nutq ishtirokchilari tomonidan anglanishi kabilar dolzarbli masala sifatida qolmoqda.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти -Т.: 2008. Б.34
2. Арутюнова Н.Д. Прагматика // Лингвистический энциклопедический словарь. М.: Советская энциклопедия, 1990. С. 3
3. Нурмонов А., Махмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси.ЎзР.ФА.фан. Тошкент-1992.Б.34.
4. Burhonov Z. O'zbek tilida ko'makchilar va ularga vazifadosh kelishikklar pragmatikasi (pragmatic aspekt): Filol. fan. nomz. ....dis. avtoref. T., 2008. 5-bet.
5. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap // O'zbek tili va adabiyoti. 1986, 6-son. 28-bet
6. Hakimov M.,Gaziyeva M. Pragmalingvistika asoslari.–Farg'ona,2020, 92-bet.
7. Qo'ychiboyev A. Matn pragmatikasi –Samarqand., 2015. 86-bet.
8. Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. номз. ... дисс.– Самарқанд, 1994. 4-bet.

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ S/6 (4) – 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).